

## **Janubiy Amerika tabiiy geografik o'lkalari.**

*Rizaqulova Nilufar Abdupattayevna*

*Andijon viloyati Shahrixon tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*geografiya fani o'qituvchisi*

*ANNOTATSIYA: Maqolada Janubiy Amerika relyefidagi tafovutlar, tog'li g'arb, tekislik sharq, tabiiy geografik o'lkalarning resurslari va iqlimi va mavjud resurslardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.*

*Kalit so'zlar: Janubiy Amerika, relyef, tog'li g'arb, tekislik sharq, geografik resurs*

### **Janubiy Amerika tabiiy geografik o'lkalari .**

Janubiy Amerika hududining relyefidagi tafovutlariga asoslanib, unda ikkita yirik tabiiy-geografik o'lka ajratilgan — Tog'li G'arb va Tekislikli Sharq. O'z navbatida, bu o'lkalari tabiiy xususiyatlariga qarab bir necha kichikroq tabiat komplekslariga bo'linadi. Jumladan, tog'li hududida Shimoliy, Markaziy va Janubiy And, tekislikli hududida esa Orinoko, Amazoniya, Gviana va Braziliya yassi tog'lari, plata, kabi kichik tabiiy-geografik o'lkalarni ajratish mumkin. Quyida tabiat komplekslariga qisqacha tavsif beramiz. **Amazoniya materikning eng katta botqoqlashgan pasttekisligi Gviana va Braziliya yassi tog'liklari oralig'ida joylashgan. Bu pasttekislik platformaning botiq qismi dengiz, ko'l va daryo yotqiziqlari to'lishi natijasida paydo bo'lgan.** Amazoniya Yer yuzidagi issiq va nam iqlimli o'lka hisoblanib yil bo'yi harorat +24°C, +27°C atrofida bo'ladi. Yog'ingarchilik 13000 mm ni tashkil etadi. Daryo tarmoqlari nihoyatda zich joylashgan. Bu daryolar qor, muz, yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Amazonka chap irmoqlari apreldan iyungacha, o'ng irmoqlari esa dekabr dan fevralgacha to'lib oqadi. Amazoniyaning g'arbiy qismi ko'p yarusli doimiy yashil ekvatorial o'rmonlar bilan qoplangan. O'rmonlarda yo'g'onligi 15 quloch keladigan baland bo'yli seyba — paxta daraxti, qimmatli yog'och beradigan seyba

daraxti, xilma-xil palmalar, Braziliya nomining kelib chiqishiga sabab bo'lgan (pau brazil daraxti (qizil daraxt) o'sadi.

Bu kichik o'lkada daraxt baqalari, turli xil ilonlar, eng katta ilon- Anakonda, toshbaqa va kaltakesak kabi hayvonlar yashaydi. Daryolarda shuningdek kaymanlar, alligatorlar hamda baliqlar ko'p uchraydi.

Amazoniya hududidagi cho'kindi jinslar orasidan neft, tabiiy gaz, rangdor metallar, marganes, temir konlari topilgan.

Braziliya yassi tog'ligi Amazonka va La-Plata pasttekisliklari hamda Atlantika okeania oralig'ida joylashgan. U asosan, eng qadimgi kristall va metamorfik tog' jinslaridan tuzilgan. Kristall jinslar orasida temir, olmos, uran rudalari, marganes, rangdor metall rudalarining katta konlari bor. Yassi tog'likning yuzasi chuqur daryo vodiylari bilan parchalangan, ular past-baland qirlarni eslatadi. Yassi tog'likning katta qismi subekvatorial va tropik, janubiy qismi esa subtropik mintaqalarda joylashgan. Shuning uchun bu o'lkada yanvarning o'rtacha harorati +22°C dan +29°C gacha, iyulning o'rtacha harorati +12°C gacha kuzatiladi. Yillik yog'in miqdori o'rtacha 1400-2000 mm ga teng.

Braziliya yassi tog'ligining barcha daryolari yomg'irdan to'yinadi, shu sababli daryolar rejimida qishda suv kamayadi va yozda esa daryolar to'lib oqadi. Bu yerda doimiy sernam yashil tropik o'rmonlar Atlantika okeanidan uzoqlashgan sari butazor savannalar hamda o'tloq savannalar bilan almashinib boradi. Shimoliy qismidagi o'rmonlarda yelimli palma po'sadi. Janubida Braziliya araukariyasi, doimiy yashil va aralash subtropik o'rmonlar bor. O'rmonlarning birinchi yarusida doimiy yashil o'simliklar keng tarqalgan, ular orasida Paragvay choyi alohida ajralib turadi. Siyrak o'rmonlarda va savannalarda qiziltumshuq, yolli bo'ri, qizil bug'u, nandu tuyaqushi, tapirlar yashaydi.

Yassi tog'likning daraxtlardan ochilgan joylarida paxta, shakarqamish, kakao va boshqa xil tropik ekinlar ekiladi. O'lkaning daryolarida ostonalar va sharsharalar ko'p. Ular juda katta gidroenergiya zaxirasiga ega bo'lib, ularning bo'ylarida elektr stansiyalari qurilgan.

*Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Geografiya 7-sinf uchun darslik / M.T.Mirakmalov, Sh.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojiyeva. – Toshkent 2022
2. Geografiya 10-sinf uchun darslik / Sh.M.Sharipov, V.Fedorko, N.I.Safarova. V.A.Rafiqov. – Toshkent 2017
3. Geografiya fanidan standart va nosandart testlar to'plami/ M.Avezov, A.Abdurahmonov. – Toshkent 2023y 4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) ,[www.pedogog.uz](http://www.pedogog.uz)